

“DEVONU LUG‘OTIT-TURK” ASARINING O‘RGANILISH TARIXI

Safarova Nargiza Baxtiyor qizi

Termiz davlat universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15237571>

Annotatsiya. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari birinchi tilshunoslikka atab yozilgan asar hisoblanadi. Bu asar faqat tilshunoslik bilan cheklanib qolmasdan, balki Markaziy Osiyoda yashovchi qabilalar tarixi va adabiyotga oid materiallarni o'z ichiga olgan. M. Qoshg'ariy "Devon" ni 1074-yilda yozib tugatgan. Asar ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Ushbu maqola "Devonu lug'otit-turk" asari haqidagi ma'lumotlar va o'rganilish tarixiga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: turkiy tillar, tilshunoslik, devon, til, lug‘at, turkona, turkiyshunos.

THE HISTORY OF THE STUDY OF THE WORK “DEVONU LUG‘OTIT-TURK”

Abstract. Mahmud Kashghari's work “Devonu lug‘otit-turk” is considered the first work dedicated to linguistics. This work is not limited to linguistics, but also includes materials on the history and literature of the tribes living in Central Asia. M. Kashghari completed writing “Devonu lug‘otit-turk” in 1074. The work has been studied by many scholars. This article focuses on the information about the work “Devonu lug‘otit-turk” and the history of its study.

Keywords: Turkic languages, linguistics, devon, language, dictionary, turkona, turkish scholar.

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ДЕВОН ЛУГ‘ОТИТ-ТУРК»

Аннотация. «Дивону Луг‘отит-Турк» Махмуда Кашгари считается первым трудом, посвященным языкознанию. Эта работа не ограничивалась только лингвистикой, но включала также материалы по истории и литературе племен, проживавших в Средней Азии. М. Кашгари завершил написание «Девона» в 1074 году. Труд изучался многими учеными. В данной статье основное внимание уделяется информации и истории изучения произведения «Девону Луотит-Турк».

Ключевые слова: тюркские языки, языкознание, библиотека, язык, словарь, туркана, тюрколог.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asari o‘zbek tilshunosligini boshlab bergan birinchi qomusiy asar hisoblanadi. U ushbu asar ustida uzoq yillar ishlagan.

Mahmud Qoshg'ariy Yuqori Chindan tortib butun Movarounnahrni kezib chiqadi, o'sha yerda yashab, xalqlarning turmush tarzini, tillarini, turar joylarini o'rganadi. Bu asarda XI asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G'arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug' va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan. U ko'p yillar davomida to'plagan bu materiallari asosida "Devonu lug'otit-turk" nomli uch tomli asar yozadi. „Devonu lug'oti-turk“ning qo'lyozmasi 1914-yil Turkiyaning Diyorbakr shahridan topilgan. 319 sahifali bu qo'lyozma hozirgi Istanbulda saqlanadi. Bu nusxa „Devonu lug'oti-turk“ yozilganidan salkam 200 yildan keyin, ya'ni Mahmud Qoshg'ariyning o'z qo'li bilan yozilgan nusxadan 1266-yilda kotib Muhammad ibn Abu Bakr ibn Fotihal-Soviy al-Damashqiy tomonidan ko'chirilgan.

Boshqa nomi	Turkiy tillar devoni
Turi	Lug'at
Sanasi	1071/1072
Kelib chiqish joyi	Bog'dod
Tili	Arab tili, Qoraxoniylar tili
Yozuvi	Arab yozuvi
Muallifi	Mahmud Qoshg'ariy

M. Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari ikki qismdan iborat:

- 1.Kirish;
- 2.Lug'at.

Kirish qismida muallif turkiy tillarning mavqeyi, lug'atning oldiga qo'yilgan vazifalar, asarning mundarijasi, turkiy tillarda so'z tuzilishi va so'z yasalishi, turkiy qabilalar va ular tillarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib bergan.

Lug'at qismida esa muallif 7500 ta (boshqa hisoblarga ko'ra, M. Qoshg'ariy hisoblagan so'zlarning soni 9000 dan oshadi) so'zni sakkiz bo'limga bo'lib izohlab beradi.

Mahmud Koshg'ariyning o'zi "Devon"ning yaratilishida Xalil ibn Ahmadning "Kitob ul-ayn" asaridan foydalanganligini qayd etadi. Demak, o'zbek lug'atchiligining shakllanish tarixini M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari bilan belgilaganimizda ham, uning taraqqiyoti o'rta asrlarda va undan oldingi davrlarda yaratilgan ko'plab lug'atlar bilan belgilanadi.

Shuni aytish joizki, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asari shu kungacha ko'plab olimlar tomonida o'rganildi va turli tillarga tarjima qilindi.

"Devonu lug'oti-t-turk" asari 1914-yilda topilgan bo'lsa ham, koshg'arlik olim Muhammad XIV asrlarda, misrlik olimlar Badriddin Ayniy, Sahobiddin Ahmad XV-XVI

asrlarda, turk olimi Chalabiy esa XVII asrlarda o'zlarining asarlarida ma'lumot berib ketgan edilar. Devonu lug'oti-t-turk" asari arab tilidan ilk tarjimasi turk tiliga qilingan. Shuningdek, asarning boshqa tillarga ham to'liq tarjimalari mavjud: o'zbek, uyg'ur, ozarbayjon, qozoq, ingliz, nemis, xitoy, rus va eron tillariga ham tarjima qilingan. Lug'at arab tilidan birinchi marta turk tiliga Basim Atalay tomonidan tarjima qilingan.

"Devonu lug'oti-t-turk" asari ustida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan biri nemis olimi Karl Brokelmann bo'ldi. Chunki olim "Devon" tadqiqiga bag'ishlangan o'nlab asarlar yaratdi.

"Devonu lug'oti-t-turk" bilan shug'ullangan rus olimlaridan eng ko'p ilmiy izlanishlar olib borgan turkologlardan bir V.V. Bartold ilk bor 1921-yilda Mahmud Koshg'ariyning "Devon"i xususida o'zining ma'ruzasini o'qigan. Adibning "Devon"idan joy olgan tilshunoslikka bag'ishlangan nazariy qarashlari to'g'risida esa S.E.Malov ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan va devondagi she'rlarni rus tiliga tarjima qilgan. Shundan keyin, 1926-yilda turkolog K.K. Yudaxin va arabshunos olim E.A. Shmitlar bilan birgalikda ushbu devonga asoslangan holda "Qadimgi turkiy til lug'ati" nomli kitobni tuzib chiqadilar.

Ozarbayjon tilshunosligida "Devonu lug'oti-t-turk" asariga bag'ishlangan bir qator salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, 1926-yilda Bokuda bo'lib o'tgan Birinchi turkiyshunoslar qurultoyida B.Cho'ponzoda "Devon" haqida o'z ma'ruzasi bilan chiqadi.

Shuningdek, P.Juze, V.Asanov, A.Demirchizade kabilarning maqolalarida "Devon"ning til xususiyatlari, uning ozarbayjon tili bilan munosabati o'rganilgan.

"Devonu lug'oti-t-turk" asarining o'rganilishida turkologiyada boshqird tilshunoslarining ham amalga oshirgan bir qator ishlarini alohida ta'kidlamaslikning iloji yo'q. T.M.Garipov, K.Z.Axmerov, Dj.G.Kiyekbayev, E.F.Ishberdin, L.Samsiteva, A.Kulanchin kabi tilshunos olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari eski turkiy til va hozirgi boshqird tili munosabatlarini yoritishga qaratilgan bo'lib, bu tadqiqotlarning asosiy qismi leksik birliklar va frazeologizmlar tahliliga bag'ishlangan.

Qirg'iz va qozoq tillaridagi tadqiqotlarga misol sifatida T. Tokoyev va J.A. Semenova, I.SH. Sultanaliev, E. Kurishjonov, R. Qayirbayeva, R. Magripov, T. Garipov, O. Naqisbekovlarning ilmiy izlanishlarini keltirish mumkin. Jumladan, I.SH.Sultanalievning maqolasida "Devon"ning o'zbek, uyg'ur, qozoq, turk, qirg'iz tillariga qilingan tarjimalari asarning asl nusxasi bilan qiyoslangan. Bundan tashqari, B. Orzubayeva, M. Usmambetovlarning tadqiqotlarida ham "Devonu lug'oti-t-turk"ning til xususiyatlari atroflicha yoritilgan.

"Devonu lug'oti-t-turk" asari turkiycha so'zlarning arabcha izohli lug'ati bo'lganligi sababli ilmiy jihatdan alohida ahamiyatga ega asar hisoblanadi. Asarning turli tillarga tarjima qilinishi, qadimgi turkiy xalqlarning turmush tarzi, madaniyati, so'z boyligini boshqa xalq vakillariga ko'rsatish uchun zamin bo'ladi. Asarning bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay ilmiy va ma'naviy meros sifatida qadrlanishi uning beqiyos tarixiy ahamiyatidan dalolat beradi.

REFERENCES

1. "Devonu lug'ati-t-turk" 1960, I- Mahmud Qoshg'ariy "Turkiy so'zlar devoni"/Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutalliboyev.1-tom. – Toshkent: Fan, 1960.
2. I. Qo'chqortoyev. B. Isabekov. "Turkiy filologiyaga kirish". - Toshkent. "O'qituvchi"-1984.
3. "Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'ati-t-turk"/ Nashrga tayyorlovchisi Qosimjon Sodiqov. –Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2017.
4. Xudayberdiyev. J. Mahmud Qoshg'ariy hayoti va "Devonu lug'otit-turk" asarining o'rganilishi. - Toshkent. 2010.
5. Z. Boltayeva." Devonu lug'atit-turk "asarining o'rganilishiga doir mulohazalar. Maqolasi.